



Qoraqalpog'iston Respublikasida Demografik holat

2026- yilning yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi.

Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026-yilning 1-iyul holatiga Qoraqalpog'iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2 061,5 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,0 foizga ko'paygan. 2026-yil yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 15,9 ming nafarni, vafot etganlar 5,3 ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish 10,6 ming kishiga teng bo'ldi. Mamlakatimizga xorijiy davlatlardan ko'chib kelganlar soni 115 kishini va mamlakatdan xorijga ko'chib ketganlar soni 1 899 kishini, qayd etilgan nikohlar 5,0 mingtani, nikohdan ajralishlar 1,0 mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	2 061,5	<i>ming kishi</i>
Tug'ilishlar soni	15,9	<i>ming kishi</i>
O'lganlar soni	5,3	<i>ming kishi</i>
Xorijdan ko'chib kelganlar	115	<i>kishi</i>
Xorijga ko'chib ketganlar	1 899	<i>kishi</i>
Nikohlar soni	5,0	<i>ming birlik</i>
Nikohdan ajralishlar soni	1,0	<i>ming birlik</i>

II. Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasida doimiy aholi soni 2026-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra 2 061,5 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 20,8 ming kishiga, yani 1,0 foizga ko‘paydi. Doimiy yashash hududi bo‘yicha shahar joylarda 1 002,6 ming kishi (jami aholi soniga nisbatan 48,6 %), qishloq joylarda esa 1 058,9 ming kishi (51,4 %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni 1 025,7 ming kishini (49,8 %), erkaklar esa 1 035,8 ming kishini (50,2 %) tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni (1-iyul holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	<i>O‘sinh sur‘ati, % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 040,7	2 061,5	101,0
Nukus sh.	347,2	351,5	101,2
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	217,0	219,9	101,3
Beruniy	210,6	213,9	101,6
Bo‘zatov	21,8	21,8	100,0
Qorao‘zak	54,7	54,7	100,0
Kegeyli	75,6	76,0	100,5
Qo‘ng‘irot	137,8	138,7	100,7
Qonliko‘l	54,6	54,9	100,5
Mo‘ynoq	34,0	34,2	100,6
Nukus	55,5	56,4	101,6
Taxiatosh	77,7	77,9	100,3
Taxtako‘pir	38,9	38,9	100,0
To‘rtko‘l	234,1	237,3	101,4
Xo‘jayli	130,6	131,7	100,8
Chimboy	116,8	117,0	100,2
Shumanay	58,6	58,7	100,2
Ellikqal’a	175,2	178,0	101,6

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2026-yil 1-iyul holatiga ko‘ra 1 kvadrat kilometrda o‘rtacha 12,4 kishi to‘g‘ri kelgan. (2025-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga 12,3 kishi).


Demografik holat



III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni 15,9 ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 15,6 promilleni tashkil etdi. Tug'ilishlar soni 2026-yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,1 ming nafarga kamaygan.


Vafot etganlar soni 5,3 ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,2 promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2025-yilning mos davrida nisbatan 0,3 ming nafarga ko'paygan.



Qoraqalpog'iston Respublikasida tirik tug'ilganlar soni 15,9 ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni 8,2 ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan 51,6 %), qiz bolalar soni 7,7 ming kishini (48,4 %) tashkil etdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida vafot etganlar soni 5,3 ming kishini, shundan erkaklar 3,0 ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan 56,6 %), ayollar 2,3 ming kishini (43,4 %) tashkil etdi.

Tugʻilganlar va vafot etganlarning jinslar boʻyicha taqsimlanishi, ming kishi




IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Qoraqalpogʻiston Respublikasida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni 5,0 ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti 4,9 promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,7 ming birlikka kamaygan.

Nikohdan ajralishlar soni 1,0 ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi. Nikohdan ajralishlar soni joriy yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan 0,1 ming birlikka koʻpaygan.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni, ming birlik




Qoraqalpogʻiston Respublikasida nikoh tuzganlar soni 5,0 ming birlikni, shundan shahar joylarida 2,2 ming birlikni (44,0 %), qishloq joylarida 2,8 ming birlikni (56,0 %) tashkil etdi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida nikohdan ajralishlar soni 1,0 ming birlikni, shundan shahar joylarida 0,6 ming birlikni (60,0 %), qishloq joylarida 0,4 ming birlikni (40,0 %) tashkil etdi.



**Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning
shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik**



V. Aholi migratsiyasi


2026-yilning yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni 8 094 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar 7 979 kishini, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 115 kishini tashkil etdi.

Ko'chib ketganlar jami soni 10 331 kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar 8 432 kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar 1 899 kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	8 094	7 979	115	10 331	8 432	1899
Nukus sh.	3 053	3 038	15	2 453	2 068	385
tumanlar:						
Amudaryo	348	340	8	646	572	74
Beruniy	373	373	0	578	519	59
Bo'zatov	75	70	5	161	136	25
Qorao'zak	178	178	0	402	347	55
Kegeyli	313	298	15	567	483	84
Qo'ng'iro't	306	296	10	620	411	209
Qonliko'l	232	232	0	378	339	39
Mo'ynoq	121	119	2	219	163	56
Nukus	721	715	6	531	474	57
Taxiatosh	278	277	1	394	271	123
Taxtako'pir	114	113	1	300	194	106
To'rtko'l	403	399	4	535	489	46
Xo'jayli	586	557	29	775	518	257
Chimboy	362	344	18	921	699	222
Shumanay	191	191	0	384	350	34
Ellikqal'a	440	439	1	467	399	68

Xorijdan ko'chib kelganlar va xorijga ko'chib ketganlar soni, kishi





VII. Demografik ko‘rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama’lumotlari

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo‘mitasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o‘rtasida ma’lumotlar elektron almashinuvi bo‘yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo‘ladigan barcha zaruriy ma’lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko‘rsatkichlarni tavsiflovchi ma’lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to‘g‘risidagi birlamchi ma’lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ma’lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug‘ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o‘lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko‘chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko‘chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma’lumotlari.

Metama’lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fuqarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas’ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo‘limi

Ijrochi:
A. Mamutova
Tel: 61 222-76-57
(9570)

Manzil:
230103, Nukus,
A. Dosnazarov ko‘chasi,
97 a-uy Pochta:
info@qrstat.uz
